

PUDRAT SHARTNOMASI

2022 y. «18» 7

245-4-61-XT/2022-son

Kasbi tuman.

(keyingi Kasbi tuman xalq ta'limi bo'limi
(yuridik shaxsning nomi yoki fuqaro F.I.SH.)

o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan Nizom
(Ustav, ishonchnoma va h.k)

asosida harakat qiluvchi raxbar: Suyunov Asror G'ulomovich bir
(vazifasi, familiyasi, ismi)

tomondan va SHUKURJON STROY TA'MIR X/K (keyingi
(yuridik shaxsning nomi yoki fuqaro F.I.SH.)

o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida
(Ustav, ishonchnoma va h.k)

harakat qiluvchi raxbar: RO'ZIMAMATOV ABBOSJON RO'ZIMAMAT O'G'LI ikkinchi
(vazifasi, familiyasi, ismi)

tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o'z tavakkalchiligiga asoslangan va o'zining hamda Kasbi tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 20-sonli umumta'lim maktabga 8-ochkolik hojatxona joriy ta'mirlash ishlari uchun Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig'iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini: Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Shartnoma bahosi **69 500 000 (oltmish to'qqiz million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi.**

2.2. Shartnoma bahosi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

2.3. Shartnomaning 2.1- bandida ko'rsatilgan baho dastlabki bo'lib, so'nggi baho Pudratchi taqdim etgan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Shartnoma bahosi inflyatsiya natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining oshishi bilan bog'liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

3. TO'LOV SHARTLARI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: (bir vaqtning o'zida, avans to'lovi bilan bo'lib-bo'lib to'lash va h.k)

3.2. To'lov shakli: shartnoma umumiy summasi **69 500 000 (oltmish to'qqiz million besh yuz ming)** so'mni 30% oldindan to'lov amalga oshiriladi va bajarilgan ishlariga nisbatan forma 3 yoki forma 5 ga asosan to'lov amalga oshiriladi. (to'lov talabnomasi, topshiriqnomasi, chek va h.k) 3.3. Shartnoma bo'yicha so'nggi hisobkitob ishlar bajarilgandan so'ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, _kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

4.1 Pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni ishlarning kalendar rejasida belgilangan muddatlarda bajaradi (1-ilova).

4.2 Buyurtmachi quyidagi muddatlarda Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'laydi:

4.3 Shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish muddati:

Boshlanishi – 2022 yil 18 iyuldan tugashi 2022 yil 18 avgustgacha

5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. Pudratchining majburiyatlari: o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish; loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish binosiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish; o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan

barcha muvaqqat binolarni qurish; ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish; qurilish maydonchasida texnika va yong'in xavfsizligi hamda qurilish maydonchasining qo'riqlanishi bo'yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta'minlash; qurilish obyektlarining sug'urta qilinishini ta'minlash; qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish dalolatnomasi imzolanganidan keyin 10 (o'n kunlik) muddatda qurilish binosidan o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

5.2. Buyurtmachining majburiyatlari: ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish; shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to'lash; Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida obyektни qabul qilib olish.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma bahosining foizi miqdorida neustoyka to'laydi.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6.3. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar tugallanganidan so'ng o'ziga tegishli materiallarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, Buyurtmachi qurilish maydonchasi bo'shatib berilgan sanaga qadar Pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to'lashni to'xtatib turishga haqli.

6.4. Neustoykani to'lash taraflarni majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

6.5. Tovarlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

6.6 Agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standart talablarga mos kelmasa sotib oluvchi tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan aktseptsiz tartibda undirib olinadi.

7. KORUPTSIYAGA QARSHI BO'LGAN HOLATLAR

7.1. Tomonlar va ularning har biri, poraxo'rlik va korrupsiyaga mutlaqo toqat qilmaslik siyosatiga ega ekanligini tan oladilar va tasdiqlaydilar, bu esa korrupsion harakatlar to'liq taqiqlashni va turli yordam to'lovlar, uning maqsadli tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq rasmiyatchiliklarni soddalashtirish, osonlashtirishni, tezkorlik bilan ta'minlash masalalarni hal qilishni to'liq taqiqlashni nazarda tutadi.

7.2. Tomonlar o'z faoliyatida poraxo'rlik va tijoriy poraxo'rlik bilan kurashishga qaratilgan qonunchilik va uning asosida ishlab chiqilgan siyosat, tartiblar va tegishli qoidalarga amal qiladilar.

7.3. Tomonlar, ushbu Shartnoma yoki Kelishuv bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda, ularning filiallari, xodimlari yoki vositachilari har qanday shaxsga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pul yoki qimmatbaho buyum/narsalarni to'lamaydi, to'lashni taklif qilmaydi yoki to'lashga, har qanday nomaqbul ustunlikka erishish yoki boshqa nomuvofiq maqsadlarga erishish uchun ushbu shaxslarning qarorlariga ta'sir ko'rsatishga ruxsat bermaydi.

7.4 Tomonlar, Ushbu Shartnoma yoki Kelishuv bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning filiallari, xodimlari yoki vositachilari amaldagi qonun hujjatlarida pora berish/olish, tijorat pora olish, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari talablarini buzuvchi qonunlar va korrupsiyaga qarshi xalqaro aktlar va boshqa harakatlarni amalga oshirmaydilar.

7.5. Agar Tomonlardan biri ushbu bandning har qanday qoidalarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli Tomon boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Yozma xabarnomada, Bir taraf boshqa boshqa bir Taraf, uning filiallari, xodimlari yoki vositachilari tomonidan ushbu bandning har qanday qoidalarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lganligini ishonchli tasdiqlovchi yoki ishonish uchun asos beradigan faktlarga murojaat qilishi yoki materiallarni taqdim etishi kerak.

7.6. Agar Tomonlardan biri ushbu band qoidalarini buzsa, boshqa Tomon Shartnoma/Kelishuvdan chiqish to'g'risida yozma bildirishnoma yuborish orqali Shartnomani Kelishuvni suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli

8. FORS-MAJOR

8.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmaz kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir.

Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

8.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmaz kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

8.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmaz kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

8.4. Agar yengib bo'lmaz kuch holatlari uzluksiz 2 (ikki) oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

9. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

9.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

9.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi tegishli iqtisodiy sudlari orqali hal etiladi.

9.3 Shartnomaning amal qilish muddati tomonlar imzolab tegishli tartibda tuman g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tgach kuchga kiradi hamda 2022-yil 31-dekabr kuniga qadar amalda hisoblanadi.

10. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

PUDRATCHI

SHUKURJON STROY TA'MIR XK

Manzil Kasbi tuman tuman markazi

STIR: 308081044 OKONX

X/R 20208000305539752001

"ASIA ALLIANCE BANK" Qarshi filiali

MFO 01099

BUYURTMACHI

Kasbi tuman xalq ta'limi bo'limi

Manzil Kasbi tuman markazi

STIR 207 116 556 OKONX 92210

X/R 100022860102377092100075070

Bank Markaziy bank Tosh. Shahar


MFO 00014

Moliya Vazirligi G'aznachiligi


G'azna STIRI 201122919

G'azna X/R 23402000300100001010

Raxbar



A.R. Ro'zimamatov



Raxbar



A.G'.Suyunov

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

- 1.Loyihaning turi: Shartnoma.
- 2.Loyihaning nomi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.08.1998-yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-sonli Qonuni hamda 22.04.2021-yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonuni va 27.09.2018-yildagi "O'zbekiston Respublikasining davlat xaridlari to'g'risidagi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-sonli Qarorlariga asosan;


Shartnomaga ko'ra, umumiy qiymati **69 500 000 (oltmish to'qqiz million besh yuz ming) so'm** bo'lgan bir tomondan "Buyurtmachi" hisoblangan Kasbi tuman xalq ta'limi bo'limi hamda ikkinchi tomondan "Pudratchi" hisoblangan "**SHUKURJON STROY TA'MIR**" X/K o'rtasida, "Pudratchi" "Buyurtmachi"ning buyurtmasiga asosan "**Kasbi tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 20-sonli umumta'lim maktab 8-ochkolik hojatxona joriy ta'mirlash ishlari**", "Buyurtmachi" esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to'lovlarni amalga oshirishni o'z zimmalariga olishi to'g'risida;

- 3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot;
Kasbi tuman xalq ta'limi bo'limi, 2022-yil 18-iyul.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Kasbi tuman yuridik xizmat
ko'rsatish markaz bosh yuriskonsulti**

2022-yil "18" iyul.



S.M.Rajabov

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 118546 на приобретение Касби туман
ХТБга карашли 20-сонли умумтаълим мактабига 8-очколик хожатхона жорий таъмирлаш
ишлари учун**

Способ проведения электронный

Дата 13.07.2022

Время рассмотрения 13.07.2022 18:01

Конкурсная комиссия Касби туман Халк таълими булими, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	SUYAROV AKRAM JO'RAYEVICH	мухандис	комиссия раиси
Секретарь комиссии	OMONOV MIRG'OLIB BEGALI O'G'LI	хисобчи	ХТБ хисобчи
Член комиссии	MAVLONOV G'ULOM PARDAYEVICH	Бош хисобчи В.В.Б	касби туман хтб
Член комиссии	CHORIYEV FAYYOZ ORIFOVICH	Бош иктисодчи	ХТБ Бош иктисодчи
Член комиссии	ERGASHEV HOJIAKBAR HAMIDOVICH	ХТБ шуба мудир	ХТБ шуба мудир
Член комиссии	HAYDAROV HASAN QODIROVICH	ХТБ таъминотчиси	ХТБ таъминотчиси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 13.07.2022 года № лота 118546.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 65

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по текущему ремонту сооружений
Подробное описание	20-мактабга 8-очколик хожатхона жорий таъмирлаш ишлари учун
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	69 844 025.00
Стартовая сумма	69 844 025.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Таклиф берадиган пудратчи ташкилот бажариладиган иш ва хизматларни уз вақтида ва сифатли бажариши ва статистик руйхатдан утганлиги тугрисида маълумот ва хакикатдан хам иш ва хизматларини уз вақтида бажариши тугрисида кафолат хати юклаши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Таклиф берадиган пудратчи ташкилот бажариладиган иш ва хизматларни уз вақтида ва сифатли бажариши ва статистик руйхатдан утганлиги тугрисида маълумот ва хакикатдан хам иш ва хизматларини уз вақтида бажариши тугрисида кафолат хати юклаши лозим

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SHUKURJON STROY TA'MIR XK	20	69500000	20	Экспертная		
NAXSHAB IMQXK	20	илова килинади	15	Экспертная		

Критерий №2 пудратчи ташкилот гувоҳномаси, пудратчи омборида захира материаллари борлиги тугрисида хат, ҳисоб рақамида 20% миқдорида маблағи мавжудлиги тугрисида банк томонидан хат булиши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: пудратчи ташкилот гувоҳномаси, пудратчи омборида захира материаллари борлиги тугрисида хат, ҳисоб рақамида 20% миқдорида маблағи мавжудлиги тугрисида банк томонидан хат булиши лозим

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SHUKURJON STROY TA'MIR XK	20	69500000	20	Экспертная		
NAXSHAB IMQXK	20	Илова килинади	20	Экспертная		

Критерий №3 2. Пудратчи ташкилотнинг Малакали ходимлар маълумотномаси комиссия талабига асосан бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги яъни tu.mehnat.uz сайтида рўйхатдан ўтган бўлиши ва солиқдан қарздорлиги ва банк ҳисоб рақамларига қарототекаси бўлмағли лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: 2. Пудратчи ташкилотнинг Малакали ходимлар маълумотномаси комиссия талабига асосан бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги яъни tu.mehnat.uz сайтида рўйхатдан ўтган бўлиши ва солиқдан қарздорлиги ва банк ҳисоб рақамларига қарототекаси бўлмағли лозим

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SHUKURJON STROY TA'MIR XK	20	69500000	20	Экспертная		
NAXSHAB IMQXK	20	Илова килинади	15	Экспертная		

Критерий №4 Пудратчи ташкилот ҳисобидаги транспорт воситалари ва иш қуроллари ҳақида маълумот юклашлари лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Пудратчи ташкилот ҳисобидаги транспорт воситалари ва иш қуроллари ҳақида маълумот юклашлари лозим

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SHUKURJON STROY TA'MIR XK	20	69500000	20	Экспертная		
NAXSHAB IMQXK	20	илова килинди	15	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
SHUKURJON STROY TA'MIR XK	69 844 025.00	69 500 000.00 UZS	69 500 000.00	00.00	69 500 000.00	08.07.2022 17:14:57	09.91

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
NAXSHAB IMQXK	73.125	10	83.125
SHUKURJON STROY TA'MIR XK	90	9.91	99.91

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 118546 от 13.07.2022 года на приобретение Касби туман ХТБга карашли 20-сонли умумтаълим мактабига 8-очколик хожатхона жорий таъмирлаш ишлари учун определила победителем:

SHUKURJON STROY TA'MIR XK
308081044

и резервный исполнитель: NAXSHAB IMQXK (301821299)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	ERGASHEV HOJIAKBAR HAMIDOVICH	Согласен	
Член комиссии	MAVLONOV G'ULOM PARDAYEVICH	Согласен	
Председатель комиссии	SUYAROV AKRAM JO'RAYEVICH	Согласен	
Член комиссии	CHORIYEV FAYYOZ ORIFOVICH	Согласен	
Член комиссии	HAYDAROV HASAN QODIROVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП